

INGLIZ TILIDAGI KONTAKT FE'LLARINING FUNKSIONAL KATEGORIYASI

Shermatova Nigora Isoqulovna

Samarqand davlat chet tillar o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilidagi kontakt fe'llarining semantik va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ushbu fe'llarning subyekt va obyekt o'rtasidagi munosabatni ifodalashdagi roli o'rganiladi. Shuningdek, kontakt fe'llarining grammatik tasnifi, semantik guruhlari hamda ularning nutq jarayonidagi qo'llanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy lingvistik yondashuvlar, xususan kognitiv tilshunoslik va ramka semantikasi nazariyalariga tayanilgan holda kontakt fe'llarining lingvistik tabiati yoritiladi.

Kalit so'zlar: kontakt fe'llari, semantika, kognitiv tilshunoslik, ramka semantikasi, leksik birlik, fe'l kategoriyasi.

Til tizimida fe'llar harakat va holatni ifodalovchi asosiy leksik birliklardan biri hisoblanadi. Fe'lning muayyan grammatik yoki semantik guruhga mansubligi uning gapdagi vazifasi hamda ifodalaydigan harakat turiga bog'liq¹.

Kontakt fe'llari esa subyekt va obyekt o'rtasidagi bevosita jismoniy aloqa yoki ta'sirni ifodalaydi. Bunday fe'llar inson faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kundalik hayotda keng qo'llanadi².

Masalan, ingliz tilidagi touch, hold, press, rub, push, pull kabi fe'llar obyektga nisbatan amalga oshiriladigan jismoniy harakatni bildiradi. Ushbu fe'llar yordamida insonning muayyan predmet bilan aloqa jarayoni ifodalanadi.

Tilshunos olimlarning fikriga ko'ra, fe'llar orqali insonning nafaqat harakati, balki uning psixologik yoki hissiy munosabati ham ifodalanishi mumkin³.

Masalan, stroke yoki pat fe'llari faqat jismoniy teginishni emas, balki mehr yoki g'amxo'rlik ma'nosini ham anglatishi mumkin.

Kontakt fe'llarining semantik xususiyatlarini o'rganishda kognitiv tilshunoslik muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Kognitiv tilshunoslik til birliklarini inson tafakkuri va tajribasi bilan bog'liq holda tahlil qiladi⁴.

Ramka semantikasi nazariyasi amerikalik tilshunos Charles Fillmore tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu nazariyaga ko'ra har bir so'z muayyan tajriba yoki vaziyatga oid bilimlar majmuasi bilan bog'liq holda talqin qilinadi⁵.

Masalan, touch fe'li bilan bog'liq ramka quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- harakatni amalga oshiruvchi subyekt
- harakat yo'naltirilgan obyekt



- harakat vositasi (qo'l, barmoq va hokazo)
- harakatning maqsadi yoki natijasi

Shu sababli kontakt fe'llarini tahlil qilishda ularning faqat lug'aviy ma'nosi emas, balki kognitiv va kontekstual xususiyatlari ham muhim hisoblanadi.

Kontakt fe'llarini semantik jihatdan bir necha guruhlariga ajratish mumkin.

1. Oddiy teginish harakatini ifodalovchi fe'llar. Bu guruhga obyektga yengil yoki qisqa muddatli teginishni bildiruvchi fe'llar kiradi:

touch, tap, pat, kiss.

- a) The child tapped the window.
- b) The mother kissed her child on the cheek
- c) She touched his hand softly

2. Obyektga bosim o'tkazuvchi fe'llar. Bu fe'llar orqali subyekt obyektga kuch yoki bosim ta'sirini o'tkazadi:

press, squeeze, clasp.

- a) He pressed the button.
 - b) She squeezed the lemon.
 - c) The man clasped her hand tightly.
3. Ishqalanish yoki silash harakatini bildiruvchi fe'llar:

rub, stroke, scratch, smooth.

- a) She rubbed her hands together
- b) He scratched his head.
- c) The woman stroked the cat gently

4. Harakat bilan bog'liq kontakt fe'llari:

pull, push, drag, brush.

- a) He pulled the rope.
- b) She pushed the cart.
- c) She brushed the dust off the table.

Mazkur guruhlash kontakt fe'llarining semantik imkoniyatlarini yanada aniqroq tasniflash imkonini beradi⁶.

Xulosa qilib aytganda, kontakt fe'llari til tizimida subyekt va obyekt o'rtasidagi jismoniy munosabatni ifodalovchi muhim leksik birliklar hisoblanadi.

Ular orqali insonning turli harakatlari, ta'sirlari hamda obyekt bilan aloqasi ifodalanadi.

Kognitiv tilshunoslik va ramka semantikasi yondashuvlari kontakt fe'llarining semantik tuzilishini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Shu sababli ushbu fe'llarni o'rganish tilshunoslikda muhim ilmiy ahamiyatga ega.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2012.
2. Qodirov G. O‘zbek tilida fe’llarning semantik xususiyatlari. – Toshkent, 2003.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2006.
4. Evans V., Green M. Cognitive Linguistics. – Edinburgh University Press, 2006.
5. Fillmore Ch. Frame Semantics and the Nature of Language. – 1977.
6. Croft W., Cruse A. Cognitive Linguistics. – Cambridge University Press, 2004.

